

**ALOHIDA TA'LIMGA EHTIYOJI BO'LGAN BOLALARNI NUTQIY,  
KOGNITIVVA IJTIMOY KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH HAMDA  
UMUMIY SINFGA MOSLASHTIRISH**

**Jumayeva Nigora Faxriddinovna**

*Surxondaryo viloyati Jarqōrgon tumani*

*10-sonli umumta'lim maktabi maxsus pedagogi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada kognitiv va motorik rivojlanishida orqada qolyotgan alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarni umumiy ta'lim sinfiga moslashtirish masalalari tahlil qilinadi. Inklyuziv ta'limning mazmuni, bunday bolalarning ta'lim jarayonidagi o'rni, o'qituvchi va ota onalarning roli, sinfdoshlar bilan ijtimoiy munosabatlarning ahamiyati hamda amaliyotda uchraydigan muammolar yoritilgan. Shuningdek, moslashtirish jarayonida samarali pedagogik yondashuvlar va mavjud muammolarni bartaraf etish yo'llari ilmiy asosda bayon etilgan. Maqola inklyuziv ta'lim sifatini oshirish va alohida ehtiyojli bolalarning jamiyatga muvaffaqiyatli integratsiyasini ta'minlashga qaratilgan.*

**Kalit so'zlar:** *inklyuziv ta'lim, kognitiv rivojlanish, fazoviy tasavvur, motorika, pedagogik yondashuv, ta'lim texnologiyalari, adaptiv muhit, ijtimoiylashuv, individual ta'lim, psixologik qo'llab-quvvatlash*

### **Kirish**

Bugungi globallashuv jarayonida ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri barcha bolalarga teng imkoniyatlar yaratish, shu jumladan maxsus ehtiyojga ega o'quvchilar va sog'lom o'quvchilarni bir sinfdan sifatli ta'lim bilan qamrab olishdir. Inklyuziv ta'lim modeli jahon pedagogikasida demokratik qadriyatlarining amaliy ifodasi bo'lib, O'zbekiston ta'lim tizimida ham so'nggi yillarda jadal rivojlanmoqda. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni ham barcha bolalar uchun teng ta'lim olish imkoniyatlarini kafolatlaydi. Anglaganimizdek, bugungi kunda ta'lim tizimida inklyuziv yondashuv tobora muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir bola o'zining jismoniy, aqliy yoki psixologik holatidan qat'iy nazar sifatli ta'lim olish huquqiga ega. Ayniqsa kognitiv va motorik rivojlanishda orqada qolyotgan bolalarni umumiy ta'lim sinflariga moslashtirish masalasi pedagogika va psixologiyaning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bunday bolalar ko'pincha bilimni qabul qilish, tushunish, eslab qolish, harakatlarni muvofiqlashtirish va mustaqil faoliyat olib borishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Shu sababli ularni oddiy sinf muhitiga samarali integratsiya qilish uchun maxsus pedagogik yondashuv zarur bo'ladi. Jamiyatda teng imkoniyat yaratish faqatgina maxsus maktablar bilan cheklanib qolmasligi

kerak. Aksincha, umumiy ta‘lim maktablarida barcha bolalar birgalikda o‘qishi, ijtimoiylashuvi va rivojlanishi uchun sharoit yaratilishi muhimdir. Bu jarayon nafaqat alohida ehtiyojli bolalar uchun, balki sog‘lom tengdoshlarining ham bag‘rikenglik, sabr va insoniylik fazilatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

### **Tahlillar va metodologiya**

Kognitiv jihatdan orqada qolish deganda bolaning bilish jarayonlaridagi qiyinchiliklar tushuniladi. Bunga diqqatning sustligi, xotira zaifligi, tafakkur sekinligi, nutq rivojlanishidagi orqada qolish, mantiqiy fikrlashdagi qiyinchiliklar kiradi. Bunday bolalar yangi ma‘lumotni tez qabul qila olmaydi, topshiriqni tushunishda ko‘proq vaqt talab etadi va takroriy tushuntirishga ehtiyoj sezadi. Kognitiv va motorik rivojlanishidan orqada qolgan bolalarni umumiy ta‘lim sinfiga moslashtirishning eng muhim maqsadi ularni jamiyatdan chetlashtirmaslik va ijtimoiy hayotga faol jalb etishdan iboratdir. Bola o‘z tengdoshlari bilan bir xil muhitda ta‘lim olganida, u o‘zini jamiyatning to‘laqonli a‘zosi sifatida his qila boshlaydi. Aksincha, alohida ajratilgan holda ta‘lim olish ko‘pincha unda yolg‘izlik hissini kuchaytiradi, o‘ziga bo‘lgan ishonchni pasaytiradi hamda ijtimoiy munosabatlardan qo‘rqish holatini yuzaga keltiradi. Bu esa nafaqat ta‘lim jarayoniga, balki bolaning kelajakdagi shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Umumiy sinf muhiti bolaning ijtimoiy tajriba orttirishi uchun tabiiy va samarali makon hisoblanadi. Sinf jarayonida bola muloqot qilishni, jamoa bilan ishlashni, navbat kutishni, boshqalarning fikrini hurmat qilishni va umumiy qoidalarga rioya etishni o‘rganadi. Bu ko‘nikmalar uning mustaqil hayotga tayyorlanishida muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, tengdoshlar bilan kundalik aloqa bolaning nutqiy, emotsional va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta‘sir qiladi. Shu bilan birga, umumiy sinfga joylashtirishning o‘zi yetarli emas. Asosiy vazifa bolaning ta‘lim jarayonida faol ishtirok etishini ta‘minlashdan iborat. Ya‘ni bola darsda faqat kuzatuvchi yoki tinglovchi bo‘lib qolmasligi, balki savollarga javob berishi, topshiriqlarda qatnashishi, guruhli ishlarda ishtirok etishi va o‘z fikrini ifoda eta olishi kerak. Bunday faollik bolaning bilim olish motivatsiyasini oshiradi va uning ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqaradi.

Bu jarayon samarali bo‘lishi uchun o‘qituvchi tomonidan individual pedagogik yondashuv zarur. Har bir bolaning rivojlanish darajasi, qabul qilish tezligi va o‘zlashtirish usuli turlicha bo‘lganligi sababli, dars mazmuni va topshiriqlar mos ravishda tashkil etilishi lozim. Vizual materiallardan foydalanish, topshiriqlarni bosqichma bosqich tushuntirish, qo‘shimcha vaqt ajratish va rag‘batlantirish usullari bunday bolalar uchun katta yordam beradi. Demak, moslashtirish jarayoni faqat tashkiliy emas, balki chuqur pedagogik va psixologik mazmunga ega bo‘lgan murakkab jarayondir. Uning muvaffaqiyati o‘qituvchi malakasi, sinfdagi sog‘lom ijtimoiy muhit va bolaning individual ehtiyojlariga mos yondashuv bilan bevosita bog‘liqdir.

Ana shunday sharoit yaratilgandagina alohida ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bola o‘z salohiyatini namoyon qila oladi.

Kognitiv va motorik rivojlanishida orqada qolyotgan bolalarni umumiy sinfga muvaffaqiyatli moslashtirish jarayonida ota-onalarning ishtiroki alohida ahamiyat kasb etadi. Bola ta’lim jarayonida faqat maktab muhitida emas, balki oilada ham doimiy qo‘llab quvvatlanishi zarur. Maktab va uy muhiti o‘rtasidagi uyg‘unlik bolaning o‘zini xavfsiz, tushunilgan va ishonchli muhitda his qilishiga yordam beradi. Agar maktabda unga mustaqillik, faollik va ijtimoiylashuv talab qilinsa, uyda esa aksincha ortiqcha himoya yoki befarqlik kuzatilsa, bu holat bolada ichki ziddiyat va psixologik bosimni yuzaga keltiradi. Ota- onalar pedagoglar bilan muntazam hamkorlikda bo‘lishi, bolaning o‘quvdagi yutuqlari va qiyinchiliklari haqida doimiy ma’lumot almashib turishi muhimdir. Bunday hamkorlik orqali bolaning rivojlanish dinamikasi aniq kuzatiladi va unga mos yondashuv shakllantiriladi. O‘qituvchi tomonidan tavsiya etilgan mashqlarni uy sharoitida davom ettirish, nutqni rivojlantirishga qaratilgan suhbatlar tashkil etish, mayda va yirik motorikani mustahkamlovchi oddiy kundalik faoliyatlarni bajarish ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Masalan, rasm chizish, buyumlarni tartiblash, tugma qadash, oyoq kiyim bog‘ini bog‘lash yoki oddiy muloqot mashqlari bolaning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi va fazoviy mo‘ljol olishni shakllantiradi.

Shu bilan birga, ota onalarning farzandiga nisbatan noto‘g‘ri munosabati ham moslashuv jarayoniga salbiy ta’sir qilishi mumkin. Ba’zi hollarda ota onalar bolaning imkoniyatlarini past baholab, unga nisbatan ortiqcha achinish va haddan tashqari himoya ko‘rsatadilar. Bu esa bolaning mustaqillik hissini susaytiradi va o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchini kamaytiradi. Aksincha, ayrim ota onalar bolaning real imkoniyatlarini hisobga olmasdan juda yuqori talab qo‘yadilar, bu esa ruhiy zo‘riqish va muvaffaqiyatsizlik hissini kuchaytiradi. Eng to‘g‘ri yondashuv bu bolaning individual xususiyatlari va real imkoniyatlarini to‘g‘ri baholagan holda unga mehr, sabr va oqilona talab bilan yondashishdir. Qo‘llab quvvatlash va rag‘batlantirish bolaning ichki motivatsiyasini oshiradi, ijtimoiy faolligini kuchaytiradi hamda umumiy sinfga moslashuv jarayonini yengillashtiradi. Demak, ota ona va maktab hamkorligi inklyuziv ta’limning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi.

### **Muhokama va natijalar**

Inklyuziv ta’lim jarayonini amaliyotga tatbiq etishda bir qator muammolar va to‘siqlar uchrab turadi. M. Oliver tomonidan ilgari surilgan “Ijtimoiy model”ga ko‘ra, imkoniyati cheklanganlik shaxsning individual kamchiligi yoki biologik cheklovi sifatida emas, balki jamiyatning moslashtirilmagan, to‘siqlarga boy muhiti natijasi sifatida talqin qilinadi. Ushbu model imkoniyati cheklanganlikni muammo deb emas, balki muhit va ijtimoiy tuzilmalarning yetarlicha inkluziv bo‘lmaganligi oqibati sifatida ko‘radi. Shuning uchun ham imkoniyati

cheklangan bolalarni jamiyatdan ajratish yoki ularni faqat shaxsiy kamchiliklar nuqtayi nazaridan baholash noto‘g‘ri hisoblanadi. Asosiy e‘tibor jamiyatning o‘zi – ta‘lim muassasalari, infrastrukturasi, metodikasi va muloqot madaniyatini moslashtirishga qaratilishi lozimligini ta‘kidlaydi. Inklyuziv ta‘lim kontekstida bu yondashuv yanada ahamiyatlidir. Oliverning ijtimoiy modeli ta‘lim jarayonida psixologik, pedagogik, fizik yoki kommunikativ to‘siqlarni bartaraf etish orqali maxsus ehtiyojga ega o‘quvchilarga teng imkoniyat yaratish zarurligini ko‘rsatadi. Ya‘ni imkoniyati cheklanganlikni “shaxsdagi kamchilik” sifatida emas, balki “ta‘lim muhiti yetarlicha qulay va moslashgan emasligi” sifatida talqin qilish, pedagoglarni o‘quvchilar uchun qo‘llab-quvvatlovchi, adaptiv va diskriminatsiyadan holi sharoit yaratishga undaydi. Natijada ta‘lim jarayoni barcha bolalar uchun ochiq, adolatli va inklyuziv bo‘lishi ta‘minlanadi.

Kognitiv va motorik rivojlanishida orqada qolyotgan bolalarni umumiy sinfga moslashtirish nazariy jihatdan muhim bo‘lsa ham, uni samarali tashkil etish amaliy jihatdan murakkab jarayon hisoblanadi. Bu murakkabliklar asosan pedagogik tayyorgarlik, moddiy texnik baza va jamiyatdagi ijtimoiy qarashlar bilan bog‘liqdir. Birinchi muammo ayrim o‘qituvchilarning inklyuziv ta‘lim bo‘yicha yetarli bilim va tajribaga ega emasligidir. Har bir pedagog alohida ta‘limga ehtiyoji bo‘lgan bolalar bilan ishlash metodikasini chuqur bilishi zarur, ammo amaliyotda bunday tayyorgarlik har doim ham yetarli darajada emas. Natijada o‘qituvchi bolaning ehtiyojini to‘g‘ri aniqlay olmaydi yoki unga mos pedagogik yondashuvni tanlashda qiyinchilikka duch keladi. Bu esa bolaning darsdagi faolligiga va o‘zlashtirish darajasiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Ikkinchi muammo maktablarda zarur maxsus jihozlar va mutaxassislarining yetishmasligidir. Motorik jihatdan kamchiligi bo‘lgan bolalar uchun qulay partalar, moslashtirilgan o‘quv vositalari, yordamchi texnologiyalar hamda xavfsiz harakatlanish sharoiti zarur bo‘ladi. Shuningdek, psixolog, defektolog, logoped kabi mutaxassislarining doimiy faoliyati ham katta ahamiyatga ega. Afsuski, ayrim ta‘lim muassasalarida bunday imkoniyatlar cheklangan bo‘lib, bu inklyuziv ta‘lim sifatiga bevosita ta‘sir qiladi. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun birinchi navbatda pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini kuchaytirish zarur. O‘qituvchilar inklyuziv ta‘lim metodlari, individual yondashuv va maxsus pedagogik texnologiyalar bo‘yicha muntazam o‘qitilishi kerak. Shu bilan birga, maktablarda psixologik va korreksion xizmatlarni kengaytirish, mutaxassislar faoliyatini mustahkamlash muhim hisoblanadi. Davlat darajasida inklyuziv ta‘limni qo‘llab quvvatlash ham katta ahamiyatga ega. Qonunchilik, moliyaviy ta‘minot, maxsus dasturlar va amaliy loyihalar orqali maktablarda zarur sharoitlar yaratish mumkin. Bu esa ta‘lim sifatini oshirish bilan birga, jamiyatda tenglik va adolat tamoyillarini mustahkamlaydi.

### **Xulosa**

Kognitiv va motorik rivojlanishida orqada qolayotgan alohida ta’limga ehtiyoji bo’lgan bolalarni umumiy sinfga moslashtirish zamonaviy ta’lim tizimining eng muhim va dolzarb vazifalaridan biridir. Inklyuziv ta’lim nafaqat ta’lim olish imkoniyatini kengaytiradi, balki bolaning jamiyatda o’z o’rnini topishi, mustaqil fikrlashi va ijtimoiy hayotga faol qo’shilishiga xizmat qiladi. Bunday bolalarni umumiy sinfga jalb etish orqali ularning bilim olish salohiyati, muloqot ko’nikmalari va shaxsiy ishonchi mustahkamlanadi. Moslashtirish jarayonining muvaffaqiyati o’qituvchi, ota ona, sinfdoshlar va jamiyatning o’zaro hamkorligiga bevosita bog’liqdir. Pedagogning individual yondashuvi, ota onalarning oqilona qo’llab quvvatlashi va sinfdagi sog’lom psixologik muhit bolaning rivojlanishida hal qiluvchi omil bo’lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, mavjud muammolarni bartaraf etish uchun ta’lim muassasalarida zarur sharoitlar yaratish, mutaxassislar faoliyatini kuchaytirish va inklyuziv ta’limga nisbatan ijobiy ijtimoiy qarashni shakllantirish muhimdir. Eng asosiysi, alohida ta’limga ehtiyoji bo’lgan bolalarga cheklov emas, imkoniyat nuqtai nazaridan qarash lozim. Inklyuziv sinflarda sifatli ta’limni ta’minlash uchun differensial ta’lim dasturlari ishlab chiqish interfaol metodlar majmuasini takomillashtirish, o’qituvchilar malakasini oshirish, ota-onalar bilan hamkorlik, psixologik pedagogik xizmat faoliyatini kuchaytirish muhim hisoblanadi.

Darhaqiqat, har bir bola sifatli ta’lim olish, ko’rik-tanlovlarda qatnashish huquqiga ega. Alohida ta’lim ehtiyoji bo’lgan o’quvchilarga ta’lim berishda muallimlar ko’proq harakat, izlanish talab etiladi. Agar darslarga jiddiyroq yondoshib, ko’plab interaktiv uslublar yordamida o’quvchilar jalb etilsa, har bir bolada o’zgarish bo’lishi tayin. Har bir bola o’ziga xos qobiliyat va salohiyat egasidir. To’g’ri pedagogik yondashuv, mehr va sabr orqali bu imkoniyatlarni yuzaga chiqarish mumkin. Shunday ekan, inklyuziv ta’lim insonparvarlik, tenglik va adolat tamoyillariga asoslangan holda jamiyat taraqqiyotining muhim ko’rsatkichlaridan biri bo’lib qoladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Karimova D. Maxsus pedagogika asoslari. Toshkent, O’qituvchi nashriyoti, 2019.
2. Nurmatova M. Pedagogik psixologiya. Toshkent, Tafakkur nashriyoti, 2020.
3. Rasulov A. Inklyuziv ta’lim va zamonaviy pedagogik yondashuvlar. Samarqand, 2021.
4. UNESCO. Inklyuziv ta’lim bo’yicha xalqaro tavsiyalar va metodik qo’llanmalar. Paris, 2021.
5. Xudoyberdiyev B. Defektologiya va logopediya asoslari. Toshkent, Fan va texnologiya, 2018.

6. Oliver M. The Social Model of Disability: An outdated ideology? – London: University College London Press, 1996. – 72 p.

7. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi “Ta’lim to‘grisida”gi O‘RQ-637-son Qonuni / “Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi”, 24.09.2020 y., 03/20/637/13-13-son.